

TA`LIM TIZIMIDA RANGSHUNOSLIK FANINI O`QITISH MUAMMOLARI

Pardayev Baxtiyor Abdujabborovich

A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik talim tasviriy san`at fanlari

kafedrası o`qituvchisi

e-mail:pardayevbaxtiyor89@gmail.com

Annotatsiya. Rangni ilmiy jihatdan o`rganish uchun «Rangshunoslik» fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko`p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda hattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlab kelmoqda. Ushbu maolamizda rangshunoslikning qay darajada muhim ekanligi haqida bayon qilingan.

Kalit so`zlar: Rang, rang turlari, rangshunoslik, ruhiyat, yorug`lik.

Abstract. The science of "Colorology" was created for the scientific study of color. Color is important in human life. That's why a lot of scientific research about colors has been conducted and is being conducted by scientists for centuries. Currently, even special color institutes and scientific laboratories are working in several countries. In this lesson, it is explained how important color science is.

Key words: Color, color types, color science, psyche, light.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ularni o`rganish uchun cheksiz inson umri kerak bo`ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne`matlarning sirli olamini, sabablarini o`rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan. Chunonchi, «rang» atamasi to`rtta harfdan iborat bo`lsa-da, uning ma`nosiga va sirli olamini o`rganishiga insonlarning umri yetmaydi.

Rangni ilmiy jihatdan o`rganish uchun «Rangshunoslik» fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko`p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda hattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio shahridagi rang instituti dunyoga mashhur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma`noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilg`asi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo`jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlar ma`naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o`rganilmoqda.

Respublikamizda yuqori malakali va ma`rifatli kadrlarni yetishtirish va ilm sohiblari safini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda.

Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning ma’naviyatini shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Chunki, rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin. Yorug`lik bor joyda rang bo`ladi. Chunonchi, kechqurun uyingizda chiroq o`chib qoldi, deylik hamma joy qop-qora zulmat bo`lib ko`rinadi. Siz siqilasiz, tushkunlikka tushasiz, insonda mavhumlik paydo bo`ladi. Ko`z qorachig`i kattalashadi, yurak urishi o`zgaradi, bu holat kishilarning sog`lig`iga salbiy ta’sir etadi. Buning aksini olaylik, har bahorda lola sayliga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, qir-adirlarda turli rangdagi gullarni, maysalarni, musaffo osmonni, tog` cho`qqisidagi oppoq qorlarni ko`rib, ruhingiz ko`tariladi, hayotga va tabiatga bo`lgan muhabbatigiz yanada oshadi. Shuning uchun ham, qadimiy qo`lyozmalarda yozilganidek, tabiblarimiz erta bahorda qir-adirlarga sayohat qilishni tavsiya etganlar.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma`nolari, inson sog`lig`iga la`siri va boshqalar haqida juda ko`p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib holganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o`zining «Kitob al javohir li ma`rifat al javohir» (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o`tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to`g`risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, sholrlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma`nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba`zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: avion, rahuvon, hargi karam, binafsha, bug`doyrang, bo`z gulgun, jigarrang, zangori, za`faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko`k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar. samo rang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag`iz, qoracha qo`ng`ir, havorang, anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo`ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg`aldoq, kaptar bo`yin, ko`kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olovrang, olmatakor, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surma rang, tillarang, tupori to`liq, to`tiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o`tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma`nosi hamda ularning tili yo`qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Ulug` allomalarimiz har bir rang nomini nima uchun qo`yilganligini o`z asarlarida yozib qoldirganlar. Ajdodlarimiz rangdan me`morchilik obidalarini bezash; milliy kiyimlarda; betoblarning kasalini aniqlash, davolashda unumli foydalanganlar. Chunonchi, Shayxul - islom Ibn Taymiyaning rivoyat qilishicha,

payg`ambarimiz besh xil rangli salla o`rganlar, ya`ni: oq, qora, yashil, qizil va havorang. Qora rangli sallani la`ziya marosimlarida o`rganlar. Moviy (osmon rang) sallani dushman ustidan y`alaba qilganda, oq rangli sallani masjidga borishda, qizil rangli sallani jangda, sariq sallani kasalni ko`rish uchun borishda o`rganlar.

Husayn Voiz Koshifiy liboslarning rangi haqida bunday deydi: liboslarning rangi turlicha bo`ladi. Har bir rang o`ziga xos ma`noni ifodalaydi. Agar oq libos nimani anglatadi, deb so`rasalar, shunday degin: oq kiyim kunning rangidir. Shuning uchun bunday libos yuragidagini va adovatni yo`qotadi, kishilarga riur ulashadi. Agar ko`k libos nimani bildiradi, desalar, shunday degin: ko`k rang suv rangidir. Shu bois bu rangda kiyingan kishilar saxiy va liayotni sevuvchi bo`lishlari lozim. Kim agar bu rangni ma`qul ko`rsa, xuddi suvdek toza va musaffo, har bir qalbga yaqin bo`lishi lozim. Agar qoralibos nimani anglatadi, desalar, ayt: qora rang tun va ko`z qorachig`ining rangidir, shu bois bunday libosni kiyganlarning qalblari sir-asrorga to`la bo`ladi. Agar yashil kiyim to`g`risida so`rasalar, shunday ayt: yashil rang samimiy va yetuk kishilar rangidir. Bunday kiyim kiygan kishi yordamga muhtoj kishilarga iloji boricha ko`maklashishi kerak.

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o`rni, shifoviy, tarbiyaviy, falsafiy, ruhiy tomonlari haqida juda ko`p ma`naviyat xazinalarini qoldirganlar. Afsuski, bu ma`naviy merosdan to`liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta`lim tizimi, tibbiyot, texnika xo`jaligi, iqtisod va boshqa sohalarda bu masalaga juda kam e`tibor berilayapti. Holbuki, jahonning rivojlangan mamlakatlarida rangga juda katta ahamiyat beriladi. Hattoki, rangshunoslikka oid ilmiy muassasalar faoliyat yuritadi. U yerlarda hamma sohalar, masalan, maorif, tibbiyot, iqtisod, texnikada ham ranglarni o`rganishga oid yetuk olimlar juda katta fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Markaziy Osiyoda ota-bobolarimiz qoldirgan ma`naviy merosdan foydalanmasligimiz, rangshunoslik bo`yicha birorta olim yetishib chiqmaganligi achinarli holdir. Bu muammo hal etilishi O`zbekiston iqtisodiyoti va insonlarning salomatligi uchun foydali bo`lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Qosimov. Naqqoshlik. -T.: «O`qituvchi», 1990. -160-b.
- 2..E.G`oziev. Psixologiya. -T.: «O`qituvchi», 1994. 39. R.Hasanov. Boshlang`ich sinflarda naqsh chizish metodikasi. -T.! «O`qituvchi», 1972. 108-b. «
3. U.Nurtayev. Rangshunoslik asoslari. - T.: «Ilm ziyo», 2008.
4. N.Egamov. Rangtasvir. - T.: O`MKNTM, «Bilim», 2005.
5. R.Xudoyberdiyev. Rangshunoslik asoslari. - T.: G`.G`ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006.